

# COVID-19: BAAga kirish uchun yangi qoidalar

**2022 17 Yanvar**

2022-yilning 17-yanvaridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasidan Birlashgan Arab Amirliklariga jo'nab ketayotgan yo'lovchilar quyidagilarga majbur:

- SARS-COV-2 virusli RNK (PZR) nuklein kislotasini sifatli aniqlash uchun mo'ljallangan molekulyar diagnostikaga asoslangan, namunalar olingan vaqtdan boshlab 48 soatdan kechiktirmasdan berilgan va QR-kod tizimidan foydalanadigan sog'liqni saqlash xizmati tomonidan tasdiqlangan, COVID-19ga qarshi topshirilgan testning manfiy natijasi to'g'risidagi amaldagi sertifikatini taqdim etish;
- Dubay/Sharja aeroportiga yetib kelgandan so'ng, aeroportda PZR testidan o'tish;
- Yo'lovchi test natijasini olmaguniga qadar o'zini izolyatsiya qilishi talab qilinadi.

Mazkur qoidalar 2022-yilning 17-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

BAAga kirish qoidalari bilan batafsil quyidagi havola orqali tanishing:

<https://www.uzairways.com/uz/covid-19-0>

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)